

OMMAVIY OFERTA
“Back To School - Maktabga AAAjoyib Xarid”
rag‘batlantiruvchi aksiyasida ishtirok etish qoidalari

Ushbu **“Back To School - Maktabga AAAjoyib Xarid”** rag‘batlantiruvchi aksiyasi (**“Aksiya”**)da ishtirok etish qoidalari **“SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN”** MChJ XK (**“Tashkilotchi”**) va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuvdir. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriydir va Aksiyada ishtirok etish Aksiya Ishtirokchilari https://www.samsung.com/uz_uz/offer/maktabga-aaajoyib-xarid; manzillarida joylashtirilgan rasmiy internet-do‘kon veb-saytida (**“Aksiya sayti”**) Aksiya qoidalari (**“Qoidalar”**) bilan tanishganligini va so‘zsiz roziligini bildiradi.

1. Umumiy shartlar

1.1. Tashkilotchi: **“SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN”** MCHJ XK, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Oloy Bozori Berk ko‘chasi, 64-uy manzilida joylashgan.

1.2. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 2025-yil 18-avgust Toshkent vaqti bilan soat 0:00 dan 2025-yil 14- sentyabr (shu kun ham kiradi) 23:59 gacha.

1.3. Aksiya o‘tkazilish hududi: Tashkilotchining rasmiy hamkorlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chakana savdo nuqtalari.

1.4. Aksiyaning rasmiy hamkorlari (**“Rasmiy hamkor”**):

Sifat Biznes Savdo LLC, Texnomart LLC, Texnoport LLC, Idea Concept Group LL, DXB Retail LL, Trust Valley Trade LLC , Amir Group DU FE LLC, The Eleven Electronics JV LLC, FE BM OPERATION LLC, Business Group XD LLC, Radius Mobile LLC, DXB Device Distribution FC LLC.

1.5. Aksiya veb-sayti Aksiya haqida asosiy ma’lumot manbayi hisoblanadi. Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlaridagi Aksiya haqidagi ma’lumotlar qisqartirilgan bo‘lib, barcha to‘liq va batafsil ma’lumotlar ushbu Qoidalarda keltirilgan.

2. Aksiya Ishtirokchisi

2.1. Ushbu Qoidalarning barcha shartlarini shaxsan, o‘z kuchi va vositalari bilan bajargan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega, 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli barcha jismoniy shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari Aksiya Ishtirokchilari bo‘lishi mumkin (**“Ishtirokchi”**).

2.2. Tashkilotchining xodimlari, affillangan shaxslar, ularning oila a‘zolari, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etayotgan boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiya ishtirok eta olmaydi.

2.3. Aksiya ishtirok etib, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tish paytida va boshqa yo‘llar bilan har qanday ma’lumotni (shu jumladan Aksiya veb-saytida), shuningdek shaxsiy ma’lumotlarni quyidagi hajmda taqdim etish orqali, Ishtirokchi o‘z shaxsiy ma’lumotlarini to‘plash, saqlash, uzatish shu jumladan transchegaraviy ravishda va qayta ishlashga roziligini beradi: Aksiyani,

uning shartlariga rioya etilishini, reklama, marketing va axborot byulletenlarini monitoring qilish, shuningdek marketing maqsadlarida boshqa bevosita aloqalarni o'rnatish maqsadida Tashkilotchiga va u vakolat bergan uchinchi shaxslarga o'zining joylashgan shahri, to'liq ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki chet el fuqarosining yashash ruxsatnomasi), telefon raqami, elektron pochta manzili, yashash manzili haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Rozilik belgilangan qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan uzatilgan ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha turlariga nisbatan qo'llaniladi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: olish, ovozi/tasvirli yozib olish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, o'chirish, yo'q qilish, uzatish (shu jumladan amaldagi qonunchilikka muvofiq transchegaraviy uzatish), shu jumladan Tashkilotchining vakolatli shaxslariga/boshqa vakolatli shaxslarga/uchinchi shaxslarga. Rozilik bunday ma'lumotlar Tashkilotchiga topshirilgan paytdan boshlab va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu rozilik qaytarib olinmaguncha amal qiladi.

2.4. Aksiya ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga foto/video suratga olish, saqlash, foydalanish, o'z surati/ishtiroki bilan tegishli foto/video materiallarni Tashkilotchining veb-saytida, Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida, shuningdek, boshqa maqsadlarda joylashtirishga shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, buxgalteriya hisobotini olib borish va hisobot uchun foydalanishga so'zsiz va beg'araz rozilik beradi.

3. Aksiyaning tavsifi:

3.1. Ushbu Qoidalarga muvofiq, Ishtirokchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha shartlarni bajargandan so'ng, ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan SAMSUNG savdo belgisi ostidagi mahsulotlarni xarid qilishda Tashkilotchidan tovarlarni xarid qilishda chegirma olish imkoniyatiga ega.

4. Aksiya ishtirok etish shartlari:

4.1. Aksiya ishtirok etish uchun, ishtirokchi Aksiya o'tkaziladigan davrda 1.4-bandda ko'rsatilgan aksiyaning o'tkazilish joylaridan biriga borishi va SAMSUNG savdo belgisi ostidagi mahsulotlardan birini (telefon, planshet, televizor yoki monitor) xarid qilishi lozim. Xarid qilish joyida barcha kerakli ma'lumotlarni (masalan: ism sharfi, mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, shuningdek, mahsulot seriya raqami haqida ma'lumotlarni) taqdim etish orqali xaridni amalga oshirish.

5. Sovg'alar

5.1. Aksiya doirasidagi sovg'alar sifatida SAMSUNG savdo belgisi ostidagi mahsulotlar hamda quyidagi jadvalda keltirilgan holda xarid qilingan mahsulotga qarab 15% chegirma taqdim etiladi.

5.2. Quyidagi jadvalda ko'rsatilgan SAMSUNG savdo belgisi ostidagi telefon yoki planshetlardan birini xarid qilganingizda, sovg'alar sifatida quyidagi mahsulotlar taqdim etiladi:

Model nomi	Model raqami	Miqdori	Sovg'a	
Galaxy A26 128GB	SM-A266BLGDSOZ	194	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BLGHSOZ	128	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 128GB	SM-A266BZKDSOZ	528	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BZKHSOZ	251	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 128GB	SM-A266BZWDSOZ	99	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BZWHSOZ	116	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366ELVDSOZ	59	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366ELVGSOZ	50	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366EZADSOZ	130	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366EZAGSOZ	73	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366EZKDSOZ	312	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366EZKGSOZ	201	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZAASOZ	396	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZACSOZ	845	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZGASOZ	390	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZGCSOZ	588	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZKASOZ	984	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZKCSOZ	1559	Galaxy Buds Core	Chegirma
Galaxy S25 Ultra (12+512GB)	SM-S938BAKCSOZ	70	Galaxy Buds 3 Pro	
	SM-S938BZTCOZ	38	Galaxy Buds 3 Pro	
	SM-S938BZBCSOZ	18	Galaxy Buds 3 Pro	
Galaxy S25 Ultra (12+256GB)	SM-S938BAKBSOZ	99	Galaxy Buds 3 Pro	
	SM-S938BZTBSOZ	86	Galaxy Buds 3 Pro	
	SM-S938BZBBSOZ	53	Galaxy Buds 3 Pro	
Galaxy S25 + (12+256GB)	SM-S936BZKBSOZ	22	Galaxy Buds 3	

	SM-S936BZSBSOZ	47	Galaxy Buds 3	
Galaxy S25 (12+256GB)	SM-S931BLBCSOZ	4	Galaxy Buds 3	
	SM-S931BZKCSOZ	21	Galaxy Buds 3	
	SM-S931BZSCSOZ	49	Galaxy Buds 3	
Galaxy S25 (12+128GB)	SM-S931BLBBSOZ	9	Galaxy Buds 3	
	SM-S931BZKB SOZ	27	Galaxy Buds 3	
	SM-S931BZSBSOZ	57	Galaxy Buds 3	
Galaxy A26 128GB	SM-A266BLGDSOZ	818	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BLGHSOZ	204	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 128GB	SM-A266BZKDSOZ	2183	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BZKHSOZ	693	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 128GB	SM-A266BZWDSOZ	897	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A26 256GB	SM-A266BZWHSOZ	400	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366ELVDSOZ	515	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366ELVGSOZ	241	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366EZADSOZ	560	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366EZAGSOZ	247	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 128GB	SM-A366EZKDSOZ	1928	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A36 256GB	SM-A366EZKGSOZ	827	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZAASOZ	1457	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZACSOZ	1933	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZGASOZ	786	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZGCSOZ	1036	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 128GB	SM-A566EZKASOZ	3783	25W Sayohat adapteri	Chegirma
Galaxy A56 256GB	SM-A566EZKCSOZ	3574	25W Sayohat adapteri	Chegirma
TabS10FE	SM-X526BZARSOZ	8	Buds Core	

TabS10FE	SM-X526BZARSOZ	6	Buds Core
TabS10FE+	SM-X626BZARSOZ	8	Buds Core
TabS10FE+	SM-X626BZARSOZ	6	Buds Core

5.3. Quyidagi jadvalda ko'rsatilgan SAMSUNG savdo belgisi ostidagi televizor yoki monitorlardan birini xarid qilganingizda, sovg'alar sifatida quyidagi mahsulotlar taqdim etiladi:

Model nomi	Model raqami	Miqdori	Diagonal	Sovg'alar
QLED 4K Q80D Smart TV	QE55Q80DAUXUZ	2	55	Soundbar B650D
Neo QLED 4K QN90D Smart TV	QE55QN90DAUXUZ	2	55	Soundbar B650D
OLED 4K S90D Smart TV	QE55S90DAUXUZ	2	55	Soundbar B650D
OLED 4K S95D Smart TV	QE55S95DAUXUZ	2	55	Soundbar B650D
QLED 4K Q80D Smart TV	QE65Q80DAUXUZ	3	65	Soundbar B650D
OLED 4K S90D Smart TV	QE65S90DAUXUZ	2	65	Soundbar B650D
OLED 4K S95D Smart TV	QE65S95DAUXUZ	2	65	Soundbar B650D
QLED 4K Q60D Smart TV	QE75Q60DAUXUZ	1	75	Soundbar B650D
QLED 4K Q80D Smart TV	QE75Q80DAUXUZ	1	75	Soundbar B650D
OLED 4K S95D Smart TV	QE77S95DAUXUZ	4	77	Soundbar B650D
QLED 4K Q60D Smart TV	QE85Q60DAUXUZ	3	85	Soundbar B650D
Crystal UHD DU7100 Smart TV	UE75DU7100UXUZ	6	75	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8500 Smart TV	UE75DU8500UXUZ	10	75	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8000 Smart TV	UE85DU8000UXUZ	2	85	Soundbar B650D
Crystal UHD DU9000 Smart TV	UE98DU9000UXUZ	6	98	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8500 Smart TV	UE65DU8500UXUZ	10	65	Soundbar B650D
Crystal UHD DU7100 Smart TV	UE75DU7100UXUZ	10	75	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8500 Smart TV	UE75DU8500UXUZ	10	75	Soundbar B650D
Crystal UHD DU7100 Smart TV	UE65DU7100UXUZ	20	65	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8000 Smart TV	UE65DU8000UXUZ	10	65	Soundbar B650D
The Frame LS03D Smart TV	QE55LS03DAUXUZ	4	55	Soundbar B650D
QLED 4K Q70D Smart TV	QE65Q70DAUXUZ	2	65	Soundbar B650D
Crystal UHD DU8000 Smart TV	UE65DU8000UXUZ	2	65	Soundbar B650D
OLED 4K S95D Smart TV	QE77S95DAUXUZ	1	77	Soundbar B650D
Neo QLED 4K QN95D Smart TV	QE65QN95DAUXUZ	1	65	Soundbar B650D
OLED 4K S95D Smart TV	QE65S95DAUXUZ	1	65	Soundbar B650D
Crystal UHD DU9000 Smart TV	UE98DU9000UXUZ	1	98	Soundbar B650D
QLED 4K Q70D Smart TV	QE75Q70DAUXUZ	1	75	Soundbar B650D
Neo QLED 8K QN800D Smart TV	QE75QN800DUXUZ	1	75	Soundbar B650D
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Essential S3 FHD Monitor	LS27D300GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	10	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	40	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	10	27	Chegirma 15%

Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	10	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	5	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	5	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	10	27	Chegirma 15%
Essential S3 FHD Monitor	LS27D300GAIXCI	10	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	10	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Essential S3 FHD Monitor	LS27D300GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	20	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	100	27	Chegirma 15%
Essential S3 FHD Monitor	LS27D300GAIXCI	100	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	100	27	Chegirma 15%
Essential S4 FHD Monitor	LS27D400GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Essential S3 FHD Monitor	LS27D300GAIXCI	20	27	Chegirma 15%
Gaming G4 FHD 240Hz Monitor	LS27BG400EPXUZ	50	27	Chegirma 15%

5.2. Umumiy sovg'alar soni **30 335 donani** tashkil etadi.

5.3. Sovg'alar soni cheklangan. Tashkilotchi Sovg'alar sonini mustaqil ravishda belgilash, shuningdek, uni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.4. Sovg'aning rangi Rasmiy Hamkorning omborida yoki sovg'alarni topshirish nuqtasida mavjud bo'lgan mahsulotga qarab belgilanadi. Sovg'alarni topshirish nuqtasi deb, televizor xarid qilingan manzil hisoblanadi. Shuningdek, sovg'a rangi Aksiya veb-saytidagi tasvirdan farq qilishi mumkin.

5.5. Aksiya doirasida taqdim etilgan sovg'aga ushbu turdagi mahsulotlar uchun belgilangan standart kafolat amal qiladi.

5.6. Sovg'a tarkibiga sovgani sozlash yoki ulash bo'yicha hech qanday ishlar yoki xizmatlar kiritilmaydi.

5.7. Aksiyada ishtirok etgan mahsulot qaytarilgan taqdirda, Sovg'a qaytarilishi kerak. Agar Ishtirokchi Sovg'ani qaytarishdan bosh tortsa, Tashkilotchi tegishli Tovarni qaytarib bermaslikka haqli. Qaytish va almashtirish rasmiy hamkor tomonidan belgilangan tegishli qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

5.8. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish huquqini yo'qotadi va Sovg'ani talab qila olmaydi:

5.8.1. Aksiyaning har qanday shartlarini buzishda;

5.8.2. Ishtirokchi bilan bog'lanish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganda;

5.8.3. firibgarlikka urinish yoki boshqa qonunga xilof harakatlar faktlari aniqlanganda;

5.8.4. ro'yxatga olish ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishda;

5.8.5. ushbu Qoidalarni buzgan holda ma'lumot/hujjatlarni taqdim etishdan va/yoki fotosurat/video suratga tushishdan bosh tortgan taqdirda.

5.9. Tashkilotchi hech qanday holatda Sovg'ani naqd puldagi ekvivalent summaga almashtirmaydi va/yoki tegishli Sovg'ani boshqa mahsulot bilan almashtirmaydi.

5.10. Sovg'ani olish munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Tashkilotchi tomonidan mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi.

5.11. Agar biron-bir shaxs Sovg'a qiymatini to'lashni, soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashni talab qilsa, iltimos, bunday to'lovlarni amalga oshirmang va darhol Tashkilotchi bilan bog'laning.

5.12. G'olib tomonidan 2025-yil 2-fevralga qadar da'vo qilinmagan sovg'alar talab qilinmagan deb hisoblanadi. Talab qilinmagan sovg'alar saqlanmaydi va Tashkilotchi o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanadi.

6. Aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi

6.1. G'oliblar sifatida ushbu Qoidalarining 4.1-bandida ko'rsatilgan barcha shartlarni bajargan birinchi 30 335 (o'ttiz ming uch yuz o'ttiz besh) ishtirokchi tan olinadi.

6.2. Sovg'ani olish uchun Ishtirokchi:

6.2.1. ushbu Qoidalarining 1.4-bandida ko'rsatilgan Aksiya o'tkazilayotgan Hududga shaxsan va o'z hisobidan kelishi kerak;

6.2.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini taqdim etishi kerak;

6.2.3. agar kerak bo'lsa, qo'lda olingan sovg'a bilan fotohisobot olishga rozi bo'lishi kerak.

7. Aksiya Ishtirokchisining huquq va majburiyatlari

7.1. Aksiya Ishtirokchisining huquqlari:

- Ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish;
- Ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish;
- Rasmiy hamkorlarning ommaviy resurslari va Aksiya veb-saytidagi aloqa kanallarida Aksiya shartlari va muddatlari haqida ma'lumot olish;
- Ushbu Qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida, agar mavjud bo'lsa, Aksiya veb-saytida ma'lumot olish;
- Kiritilgan o'zgarishlarga rozi bo'lmagan taqdirda, aksiyada ishtirok etishni rad etish orqali o'zgarishlarni qabul qilishdan bosh tortish. Aksiyada ishtirok etishda davom etish Ishtirokchining kiritilgan o'zgarishlar bilan roziligi hisoblanadi;
- Aksiya Tashkilotchisi haqida ma'lumot olish;
- Ushbu Qoidalariga muvofiq Sovg'a berishni talab qilish;

7.2. Aksiya Ishtirokchisining majburiyatlari:

- Qoidalariga rioya qilish, shu jumladan aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha harakatlarni ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash, shu jumladan (lekin bu bilan cheklanmagan holda) Internet, telefon va h.k;

- ushbu Qoidalarda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni o'z zimmasiga olish.

8. Aksiya Tashkilotchisining huquq va majburiyatlari

8.1. Aksiya Tashkilotchisining huquqlari:

- Aktsiya davri davomida ushbu Qoidalarni bir tomonlama o'zgartirish, Aktsiya Saytida tegishli xabar joylashtirish orqali ishtirokchini oldindan xabardor qilib Aktsiyani ilgari belgilangan muddatdan avval tugatish. Xabar berish sanasi Aksiya veb-saytida tegishli ma'lumotlarning e'lon qilingan sanasi yoki shartlarni o'zgartirishda ko'rsatilgan qo'shimcha sana hisoblanadi. Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining kiritilgan o'zgarishlarga roziligi hisoblanadi.
- Ishtirokchilardan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda zarur ma'lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni so'rash;
- Tashkilotchi ushbu Aksiya qoidalarini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi;
- Qoidalarining 4.1-bandida ko'rsatilgan barcha shartlarni to'g'ri va to'liq bajarmagan Aksiya Ishtirokchisiga sovg'a berishni rad etish;
- Aksiya Ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalariga rioya qilmaslik fakti aniqlangan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisiga Sovg'a berishni rad etish.

8.2. Aksiya Tashkilotchisining majburiyatlari:

- Qoidalariga rioya qilish, Aksiya bilan bog'liq barcha harakatlarni Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyaning Qoidalariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- Aktsiyani o'tkazish qoidalarini Aksiya veb-saytida va tanlangan aloqa kanallari orqali joylashtirish orqali Aksiya Ishtirokchilari uni amalga oshirish Qoidalarini to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlash;
- Qoidalarining barcha shartlarini to'g'ri bajargan barcha Aksiya Ishtirokchilariga aksiya sovg'alarini taqdim etish.

9. Boshqa shartlar

9.1. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari unda ishtirok etish orqali Aksiya qoidalariga rozilik bildiradilar va ularga rioya qilish va bajarish majburiyatini oladilar. Ishtirokchi Sovg'ani olish huquqini yo'qotadi agar:

- Ishtirokchi ushbu Aksiya qoidalarini buzsa;
- Ishtirokchi Sovg'ani olish uchun firibgarlik va/yoki aldash harakatiga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- Ishtirokchi noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalariga so'zsiz roziligini bildiradi. Ishtirokchining Qoidalarini to'liq va/yoki qisman bajarishdan bosh tortishi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishni rad etishi deb e'tirof etiladi.

9.3. Aktsiya tanlov, lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan qimor o'yini emas;

9.4. Fikr-mulohazalarni olish uchun, Ishtirokchiga Tashkilotchi/Hamkorning xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish uchun Sifat nazorati bo'limidan qo'ng'iroq qilishlari mumkin. Ishtirokchi o'z fikrini bildirishdan bosh tortishi mumkin.

Aksiya bilan bog'liq har qanday savollar bo'yicha Tashkilotchiga aloqa ma'lumotlari orqali murojaat qiling.

Tashkilotchining call markazining aloqa ma'lumotlari:

7799 – yagona qo'llab-quvvatlash xizmati